



O'ZBEK TILIDAGI BITISHUV, BOSHQARUV VA MOSLASHUV TASNIFINING SINTAKTIK RAZMETKADAGI O'RNI

Xamdamova Dilnoza,

Qarshi DU tayanch doktoranti.

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v19iA.1790>

MAQOLA HAQIDA/О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 17-avgust 2026-yil

Tasdiqlandi: 19-avgust 2026-yil

Jurnal soni: 19-A

Maqola raqami: 29

KALIT SO'ZLAR/КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

sintaktik razmetka, o'zbek sintaksisi, sintaktik tobelanish, grammatik munosabatlar, Universal Dependencies, turkiy tillar, o'zbek tili

ANNOTATSIIYA/АННОТАЦИЯ

Maqolada o'zbek tilidagi bitishuv, boshqaruv va moslashuv tasnifining sintaktik razmetkadagi o'rni tahlil qilinadi. An'anaviy tasnifda sintaktik aloqaning formal vositalari hamda ularning Universal Dependencies (UD) munosabatlari bilan o'zaro nisbati ko'rib chiqiladi. Izofa qurilmalari, ravishdoshli birikmalar va kelishik ko'rsatkichsiz obyekt kabi munozarali holatlar asosida milliy grammatik an'anadan sintaktik razmetka qoidalarini ishlab chiqishda foydalanish imkoniyatlari yoritiladi. Maqolada an'anaviy sintaktik tasnif bilan zamonaviy dependency-yondashuv o'rtasidagi metodologik farqlar ochib berilib, ularning o'zaro uyg'unlashuv imkoniyatlari asoslanadi. Xususan, sintaktik munosabatlarni belgilashda morfologik ko'rsatkichlar, hokim va tobe komponentlarning shakli munosabati, so'z tartibi hamda sintaktik kontekstning ahamiyati aniqlashtiriladi. Izofa, ravishdoshli qurilmalar va kelishik shakli ochiq ifodalanmagan obyekt kabi holatlar tahlili orqali milliy grammatik tavsifdan sintaktik annotatsiya mezonlarini ishlab chiqishda foydalanishning amaliy imkoniyatlari ko'rsatiladi. Mazkur yondashuv o'zbek tili sintaktik korpuslarini yaratish, mavjud daraxtbanklarni takomillashtirish va sintaktik munosabatlarni avtomatik aniqlash uchun lingvistik asoslarni aniqlashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, sintaktik razmetkalashda milliy grammatik tasnifdan foydalanish o'zbek tilining strukturaviy xususiyatlarini universal standartlar doirasida aniqroq ifodalash imkonini beradi. Bunda sintaktik munosabatlarning formal ko'rsatkichlari bilan ularning funksional talqini o'rtasidagi mutanosiblikni saqlash, turli annotatorlar tomonidan beriladigan razmetka qarorlarining izchilligini ta'minlash va munozarali konstruksiyalar uchun yagona mezonlarni shakllantirish muhim hisoblanadi. Mazkur tamoyillar o'zbek tilidagi sintaktik daraxtbanklarning lingvistik ishonchligini oshirish, korpus ma'lumotlarini qiyosiy o'rganish hamda tabiiy tilni avtomatik qayta ishlash tizimlarida sintaktik tahlil sifatini yaxshilash uchun zarur metodologik zamin yaratadi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 17 August 2026

Approved: 19 August 2026

Volume: 19-A

Paper number: 29

KEYWORDS

syntactic annotation, Uzbek syntax, syntactic dependency, subordination, grammatical relations, Universal Dependencies, Turkic languages

ANNOTATION

This article examines the role of the Uzbek traditional classification of subordination into *bitishuv*, *boshqaruv*, and *moslashuv* in syntactic annotation. The study considers the formal means of syntactic linkage and their relation to Universal Dependencies (UD). Problematic cases, including izofa constructions, converb constructions, and objects without overt case marking, are analyzed to demonstrate how traditional grammatical knowledge can contribute to the development and justification of syntactic annotation guidelines. The article reveals the methodological differences between the traditional syntactic classification and the modern dependency approach, and substantiates the possibilities of their mutual integration. In particular, the importance of morphological indicators, the formal relationship of the dominant and subordinate components, word order, and syntactic context in determining syntactic relations is clarified. Through the analysis of cases such as addition, adverbial devices, and objects with an unexpressed form of agreement, the practical possibilities of using the national grammatical description in developing syntactic annotation criteria are shown. This approach serves to create syntactic corpora of the Uzbek language, improve existing tree banks, and clarify the linguistic foundations for automatically identifying syntactic relations. Also, the use of the national grammatical classification in syntactic markup allows for a more accurate representation of the structural features of the Uzbek language within the framework of universal standards. In this regard, it is important to maintain a balance between the formal indicators of syntactic relations and their functional interpretation, to ensure the consistency of markup decisions made by different annotators, and to form unified criteria for controversial constructions. These principles create the necessary methodological basis for increasing the linguistic reliability of syntactic tree banks in the Uzbek language, comparative study of corpus data, and improving the quality of syntactic analysis in automatic natural language processing systems.

Kirish

Sintaktik razmetka gap tarkibidagi har bir so'zshaklning o'z hokim a'zosi bilan sintaktik bog'lanishini va mazkur bog'lanish turini belgilashni nazarda tutadi. Bunday yondashuv so'zlar o'rtasidagi sintaktik munosabatlar tasnifining oldindan aniqlangan bo'lishini taqozo etadi. Binobarin, har qanday sintaktik razmetka sxemasi muayyan sintaktik nazariyaga tayanadi.

Universal Dependencies loyihasi doirasida turkiy tillar sintaktik razmetkasi masalasi F. Tayers, J. Washington, Ch. Chyoltekin va A. Makajanov tomonidan maxsus tadqiq etilgan. Turk, qozoq va uyg'ur tillari tribanklarini qiyosiy tahlil qilgan mualliflar qator sintaktik hodisalarning turli tribanklarda bir-biridan farqli tarzda razmetka qilinganini qayd etadilar. Ularning ta'kidlashicha, razmetka sxemalaridagi jiddiy tafvutlarning aksariyati tillar o'rtasidagi grammatik farqlar bilan emas, balki mazkur sxemalarning turli grammatik an'analari asosida yaratilgan resurslardan konvertatsiya qilinganligi bilan izohlanadi [9].

Ushbu xulosa sintaktik razmetka metodologiyasi uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Agar razmetka bo'yicha qabul

qilinadigan qarorlar muayyan milliy grammatik an'anaga tayanadigan bo'lsa, mazkur an'ananing razmetka tamoyillari va kategoriyalarini shakllantirishdagi o'rni alohida tahlil qilish zarur. Ayniqsa, o'zbek tili uchun sintaktik razmetkaga ega korpuslar shakllantirilayotgan hozirgi bosqichda bu masala alohida dolzarblik kasb etadi. Zero, hozir qabul qilinayotgan razmetka yechimlari keyinchalik yaratiladigan korpus resurslari uchun metodologik asos va namuna vazifasini bajarishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili

O'zbek tilidagi sintaktik munosabatlarni o'rganishda tobe aloqa turlarining grammatik tabiati muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi. G'. Abdurahmonov o'zbek sintaksisining shakllanishi va sintaktik birliklar o'rtasidagi munosabatlarni yoritishda so'z birikmasining tarkibiy tuzilishi, hokim va tobe komponentlarning munosabati hamda sintaktik aloqaning ifodalanish vositalariga alohida e'tibor qaratadi. Muallifning yondashuvida sintaktik aloqa komponentlarning grammatik shakli va ularning o'zaro munosabati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu holat sintaktik tuzilmani formal belgilar asosida tavsiflash imkonini beradi [1, 78-91]. Mazkur qarashlar sintaktik razmetkada tobe va hokim birliklarni aniqlash, ularning

o'zaro bog'lanish vositalarini belgilash uchun nazariy asos vazifasini bajarishi mumkin.

A. G'ulomov va M. Asqarova tadqiqotlarida o'zbek tilidagi so'z birikmalari hamda tobe aloqa masalalari izchil tizimlashtirilgan. Tadqiqotchilar tobelanishning bitishuv, boshqaruv va moslashuv shakllarini farqlab, ularning har birida sintaktik munosabatning yuzaga kelish mexanizmlarini ko'rsatadilar. Xususan, bitishuvda so'z tartibi va intonatsiya, boshqaruvda hokim komponentning tobe komponentdan ma'lum grammatik shaklni talab qilishi, moslashuvda esa komponentlarning grammatik jihatdan muvofiqlashuvi asosiy belgi sifatida ko'rsatiladi [2, 78-86]. Ushbu tasnif sintaktik razmetka nuqtai nazaridan muhim bo'lib, u sintaktik munosabatlarni faqat funksional emas, balki ularning formal ifodalanishi bilan birgalikda tahlil qilish imkonini beradi.

A. Hojievning grammatik tadqiqotlarida ham o'zbek tilidagi sintaktik qurilmalar va grammatik shakllarning sintaktik vazifasi masalalariga muhim o'rin berilgan. Xususan, kelishik shakllarining sintaktik munosabatlarni ifodalashdagi roli, egallik kategoriyasining otlar o'rtasidagi munosabatni shakllantirishdagi funksiyasi hamda fe'l shakllarining sintaktik imkoniyatlari o'zbek tili grammatik tizimining muhim xususiyatlari sifatida namoyon bo'ladi [3, 112-125]. Bu yondashuv sintaktik razmetkada morfologik ko'rsatkichlarni sintaktik munosabatni aniqlashda daliliy belgi sifatida hisobga olish zarurligini asoslaydi.

N. Mahmudovning sintaksisga oid tadqiqotlarida sintaktik munosabatlarning shakliy va mazmuniy tomonlari o'zaro bog'liq holda talqin qilinadi. Muallif sintaktik birliklar o'rtasidagi munosabatni faqat tashqi grammatik shakl bilan cheklab qo'ymasdan, uning mazmuniy-sintaktik xususiyatlarini ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi [4, 64-78]. Bunday yondashuv sintaktik razmetka uchun muhim metodologik xulosaga olib keladi: formal ko'rsatkich mavjud bo'lgan holatlarda undan foydalanish bilan bir qatorda, ko'rsatkichsiz yoki morfologik jihatdan noaniq konstruksiyalarda sintaktik vazifa, so'z tartibi va kontekst kabi omillar ham e'tiborga olinishi kerak.

N. Mahmudov va A. Nurmonov tomonidan ishlab chiqilgan nazariy grammatik qarashlarda sintaktik aloqa va grammatik shakllarning o'zaro munosabati tizimli tarzda yoritiladi. Ayniqsa, so'z birikmasidagi komponentlarning hokim-tobeliy munosabati, boshqaruv va moslashuvning grammatik tabiati sintaktik tuzilmaning formal jihatlarini aniqlash uchun muhim material beradi [5, 134-146]. Mazkur qarashlar sintaktik annotatsiyada morfologik va sintaktik sathlarni bir-biridan ajratgan holda, ular o'rtasidagi bog'liqlikni saqlab qolish zarurligini ko'rsatadi.

A. Nurmonovning nazariy grammatikaga oid ishlarida sintaktik birliklarning strukturaviy xususiyatlari va ular o'rtasidagi munosabatlar masalasi yanada kengroq yoritilgan. Tadqiqotda sintaktik aloqaning shakliy ko'rsatkichlari bilan bir qatorda, sintaktik birliklarning funksional xususiyatlari ham hisobga olinadi [6, 119-132]. Bu jihat Universal Dependencies tizimining sintaktik munosabatni tobe komponentning gapdagi funksiyasi asosida belgilash tamoyili bilan qiyoslash uchun muhim nazariy asos yaratadi.

Sh. Rahmatullayevning hozirgi o'zbek adabiy tiliga bag'ishlangan tadqiqotlarida grammatik shakllarning sintaktik vazifasi, so'zlarning o'zaro bog'lanishi va gap tarkibidagi munosabatlar izchil tavsiflangan [7, 296-310]. Mazkur yondashuvdan sintaktik razmetkada ayniqsa kelishik ko'rsatkichsiz obyektlarni aniqlash masalasida foydalanish mumkin. Chunki bunday holatlarda sintaktik munosabat faqat morfologik shaklga emas, balki fe'lning semantik-sintaktik xususiyatlari, so'z tartibi va kontekstga ham tayyanadi.

R. Sayfullayeva va hammualliflarning tadqiqotlarida so'z birikmasi va gapning sintaktik tuzilishi zamonaviy nazariy yondashuvlar asosida tavsiflanib, sintaktik aloqa turlarining shakliy va mazmuniy xususiyatlari yoritilgan [8, 286-299]. Tadqiqotchilarning sintaktik birliklarni tizimli ravishda tahlil qilishga qaratilgan qarashlari sintaktik razmetka uchun ham muhimdir. Xususan, sintaktik munosabatni aniqlashda faqat bitta grammatik belgiga emas, balki bir nechta o'zaro bog'liq mezonlarga tayanish zarurati mazkur yondashuv bilan uyg'unlashadi.

Xorijiy tadqiqotlarda sintaktik razmetka masalasi Universal Dependencies doirasida yanada formal va universal mezonlar asosida ishlab chiqilgan. M.-C. de Marneffe, C. Manning, J. Nivre va D. Zeman tomonidan UD tizimining nazariy asoslari umumlashtirilib, unda sintaktik munosabatlarni universal dependency relatsiyalar orqali ifodalash tamoyillari ishlab chiqilgan. Mualliflar sintaktik munosabatlarni nsbj, obj, nmod, amod, advmod, nummod kabi funksional munosabatlar orqali ifodalashni taklif qiladilar [10, 259-274]. Bu tizim an'anaviy bitishuv, boshqaruv va moslashuv tasnifidan farqli ravishda sintaktik

munosabatning formal vositasini emas, balki tobe birlikning hokim birlikka nisbatan funksional maqomini markazga qo'yadi.

J. Nivre va hammualliflarning Universal Dependencies loyihasiga bag'ishlangan tadqiqotida ko'p tilli sintaktik daraxtbanklarni yagona tamoyillar asosida yaratish masalasi ko'rib chiqiladi. Tadqiqotchilar universal sintaktik munosabatlar inventari turli tillardagi sintaktik tuzilmalarni qiyosiy tadqiq qilish uchun umumiy asos yaratishini ta'kidlaydilar [11, 1659-1666]. Shu bilan birga, mazkur universal yondashuv konkret tilning grammatik xususiyatlarini to'liq aks ettirishi uchun milliy grammatik tavsif va tilga xos annotatsiya qoidalarining ahamiyati saqlanib qoladi.

Turkiy tillar sintaktik razmetkasining o'ziga xos xususiyatlari F. M. Tyers, J. Washington, Ç. Çöltekin va A. Makazhanov tadqiqotlarida maxsus tahlil qilingan. Mualliflar turk, qozoq va uyg'ur tillari daraxtbanklaridagi sintaktik annotatsiyalarni qiyoslab, bir qator konstruksiyalarning turli resurslarda turlicha razmetka qilinganini ko'rsatadilar. Tadqiqotchilar bunday tafovutlarning muhim qismi tillarning o'zidagi grammatik farqlardan emas, balki mavjud korpuslarni yaratishda asos qilib olingan turli grammatik an'analar va konversiya qarorlaridan kelib chiqishini qayd etadilar [9, 356-367]. Mazkur xulosa o'zbek tili uchun sintaktik razmetka qoidalarini ishlab chiqishda milliy grammatik tavsifning metodologik ahamiyatini bevosita asoslaydi.

O'zbek tiliga oid zamonaviy tadqiqotlarda UD asosidagi sintaktik daraxtbanklarni shakllantirish masalasi ham kun tartibiga chiqmoqda. A. Akhundjanova va L. Talamo tomonidan o'zbek tili uchun Universal Dependencies daraxtbankini yaratishga bag'ishlangan tadqiqotda o'zbek tilining kam resursli til sifatidagi korpus ehtiyojlari, sintaktik annotatsiya va UD standartlarini mahalliy til materialiga tatbiq etish masalalari ko'rib chiqilgan [12, 1-6]. Ushbu ish o'zbek sintaksisini xalqaro standart asosida annotatsiyalash jarayonida tilning grammatik xususiyatlarini alohida hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

S. Matlatipov va hammualliflarning UzUDTga bag'ishlangan tadqiqotlari o'zbek tilining UD formatidagi daraxtbankini rivojlantirish yo'nalishidagi amaliy izlanishlarni ifodalaydi [13, 1-8]. Mazkur tadqiqotlar o'zbek tili sintaktik tuzilishini mashinada qayta ishlanadigan shaklda ifodalash, dependency munosabatlarini belgilash va korpus lingvistikasi uchun standartlashtirilgan ma'lumotlar bazasini shakllantirish nuqtai nazaridan muhimdir. Shu jihatdan an'anaviy sintaktik tasnifning formal mezonlarini UD relatsiyalari bilan qiyoslash o'zbek tili uchun yanada izchil annotatsiya qo'llanmasini ishlab chiqishga xizmat qilishi mumkin.

S. Matlatipov, M. Aripov, M. Bobokandov va G. Matlatipovning o'zbek tilidagi adabiy va ta'limiy matnlar uchun annotatsiyalangan UD ma'lumotlar to'plamiga oid tadqiqotida sintaktik annotatsiyaning amaliy qo'llanish doirasi kengaytirilgan [14, 1-9]. Bunday resurslar o'zbek tilining real matnlaridagi sintaktik konstruksiyalarni avtomatik tahlil qilish uchun muhim bo'lsa-da, murakkab va munozarali konstruksiyalar uchun aniq annotatsiya qoidalarini ishlab chiqishni talab etadi. Ayniqsa, izofa, ravishdoshli qurilmalar va morfologik jihatdan belgilanmagan obyekt kabi hodisalar milliy grammatik tavsif bilan universal dependency tamoyillarini uyg'unlashtirish zaruratini ko'rsatadi.

D. Xamdamonovning o'zbek va ingliz tillaridagi sodda gaplarning sintaktik annotatsiyasiga bag'ishlangan tadqiqotida sintaktik razmetkaning metodologik tamoyillari, sintaktik munosabatlarni aniqlash va turli tillardagi grammatik xususiyatlarni annotatsiya tizimida ifodalash masalalari ko'rib chiqilgan [16, 1-7]. Ushbu tadqiqot o'zbek tilidagi sintaktik birliklarni universal standartlar asosida belgilashda tilning milliy grammatik xususiyatlarini hisobga olish masalasining dolzarbligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-tipologik, strukturaviy va funksional-sintaktik tahlil metodlaridan foydalanildi. O'zbek tilidagi bitishuv, boshqaruv va moslashuv munosabatlari an'anaviy grammatik qarashlar asosida tahlil qilinib, ularning formal ifodalanish xususiyatlari Universal Dependencies (UD) tizimidagi sintaktik munosabatlar bilan qiyoslandi. Tadqiqot materiali sifatida izofa qurilmalari, ravishdoshli birikmalar hamda kelishik ko'rsatkichsiz obyekt kabi sintaktik jihatdan munozarali konstruksiyalar tanlandi. Tahlil jarayonida morfologik ko'rsatkich, hokim va tobe komponentlarning shakliy munosabati, so'z tartibi, sintaktik vazifa va kontekst asosiy mezonlar sifatida belgilandi. Shu asosda milliy grammatik tasnifning o'zbek tili sintaktik relatsiysiz qoidalarini ishlab chiqishdagi nazariy va amaliy imkoniyatlari aniqlashtirildi.

Natijalar

O'zbek sintaksisida so'z birikmasi tarkibidagi komponentlar hokim va tobe a'zo sifatida farqlanadi. Ma'nosi izohlanayotgan so'z hokim a'zo, uning ma'nosini izohlovchi so'z esa tobe a'zo hisoblanadi. Masalan,

kitobni o'qimoq birikmasida o'qimoq hokim, kitobni esa tobe a'zo sanaladi [8, 79-b.]. Odatdagi so'z tartibida tobe a'zo hokim a'zodan oldin keladi. Inversiya holatlarida ushbu tartib o'zgarishi mumkin, biroq komponentlarning hokim va tobelik maqomi saqlanib qoladi. Masalan, o'qidim kitobni [8, 78-b.].

O'zbek tilida tobelanishning uch usuli farqlanadi. Ular bitishuv, boshqaruv va moslashuvdir. Bitishuvda tobe va hokim a'zolar o'rtasidagi sintaktik aloqa asosan so'z tartibi va ohang orqali ifodalanadi, maxsus morfologik ko'rsatkich esa qo'llanmaydi. Bunga *qizil gul, oq qog'oz, tez yurmoq* kabi birikmalar misol bo'la oladi. Boshqaruvda hokim a'zo tobe a'zoning muayyan shaklda kelishini talab qiladi. Masalan, *kitobni o'qimoq* birikmasida tobe a'zoning tushum kelishigi shaklda qo'llanishi hokim a'zo o'qimoq fe'lining o'timliliigi bilan belgilanadi. Moslashuvda tobe va hokim a'zolar shaklan o'zaro muvofiqlashadi. Tobe a'zo qaratqich kelishigi shaklda, hokim a'zo esa egalik shaklda keladi. Masalan, *ukamning daftari va sizning yuingiz* [8, 78-b.].

Mazkur tasnifning sintaktik razmetka uchun ahamiyati, avvalo, uning tasnif mezonini bilan belgilanadi. Unda sintaktik munosabatlar a'zolarining leksik ma'nosi yoki gapdagi sintaktik vazifasiga ko'ra emas, balki ularni bog'lovchi formal vositalarning xususiyatiga ko'ra farqlanadi. Bitishuvda aloqa maxsus morfologik ko'rsatkichsiz, asosan, so'z tartibi va ohang orqali ifodalanadi. Boshqaruvda shaklii ko'rsatkich tobe a'zoda namoyon bo'ladi. Moslashuvda esa shaklii belgilanish har ikki a'zoda ifodalanadi [11]. Shu jihatdan mazkur tasnif sintaktik munosabatning matn yuzasida qanday formal vositalar orqali ifodalanishini hisobga oladi.

Aynan shu xususiyat mazkur tasnifni sintaktik razmetka uchun metodologik jihatdan muhim qiladi. Razmetka qoidalarini imkon qadar matnda bevosita kuzatiladigan va izchil aniqlanadigan formal belgilarga tayanishi lozim. Aks holda bir xil sintaktik munosabatlarni turli holatlarda yagona tamoyil asosida belgilash qiyinlashadi. Tobe aloqa usullarining an'anaviy tasnifi esa sintaktik munosabatlarni ularning formal ifodalanish xususiyatlariga ko'ra farqlaydi. Shu sababli mazkur tasnifdan sintaktik razmetka qoidalarini ishlab chiqishda nazariy asos sifatida foydalanish mumkin.

Shu bilan birga, an'anaviy tasnifning ayrim ichki masalalari sintaktik razmetka uchun ham bevosita ahamiyat kasb etadi. Xususan, ravishdosh va sifat-dosh shakllari ishtirokidagi ayrim birikmalar turli grammatik manbalarda turlicha talqin qilinadi. Ayrim manbalarda bunday birikmalar bitishuv doirasida qaralsa, mazkur qo'llanmada ular boshqaruvli birikmalar sifatida baholanadi. Bunday yondashuvda *-ib* va *-gan* shakl ko'rsatkichlari sintaktik bog'lanishni yuzaga keltiruvchi vositalar sifatida talqin qilinadi. Bunga *shoshilib gapirdi* va *o'qigan bola* kabi birikmalar misol bo'la oladi. Mazkur nazariy farq sintaktik razmetkada ham o'z aksini topadi, chunki ravishdosh yoki sifat-dosh shaklining hokim a'zo bilan munosabatini qanday tasniflash ushbu shakl ko'rsatkichining sintaktik bog'lanish vositasi sifatida talqin qilinishiga bevosita bog'liq.

Universal Dependencies sxemasida sintaktik munosabatlar boshqa tamoyil asosida tasniflanadi. Unda tobelanish munosabatlari a'zolarini bog'lovchi formal vositalarga ko'ra emas, balki tobe a'zoning hokim a'zoga nisbatan bajaradigan sintaktik vazifasiga ko'ra belgilanadi. Masalan, subyekt *nsubj*, obyekt *obj*, o'tli aniqlovchi *nmod*, sifatlovchi *amod* munosabatlari orqali ifodalanadi³. Shu sababli an'anaviy tobe aloqa usullari bilan UD munosabatlari inventari o'rtasida bevosita muvofiqlik mavjud emas. Ular sintaktik tuzilmaning turli jihatlarini tavsiflaydi.

Buni aniq til materiali asosida ko'rish mumkin. Bitishuv asosida bog'langan birikmalar UD inventarida turli munosabatlar orqali ifodalanadi. Masalan, *qizil gul* birikmasida *qizil* so'zshakli *amod*, *tez yurmoq* birikmasida *tez* so'zshakli *advmod*, *o'nta qalam* birikmasida esa *o'nta* so'zshakli *nummod* munosabati bilan belgilanadi. Aksincha, bir xil universal munosabat turli formal bog'lanish sharoitlarida yuzaga kelishi mumkin. Masalan, *kitobni o'qimoq* birikmasidagi *obj* munosabati tobe a'zoning tushum kelishigi shakli orqali ifodalangan bo'lsa, *xat yozmoq* birikmasida obyekt munosabati maxsus kelishik ko'rsatkichsiz voqelanadi.

Shunday qilib, an'anaviy tobe aloqa tasnifi va UD munosabatlari inventari bir-birining o'mini bosa olmaydi. Biroq ular sintaktik tuzilmaning turli jihatlarini aks ettirgani sababli bir-birini to'ldirishi mumkin. Universal inventar tobe a'zoning gap tarkibidagi sintaktik vazifasini belgilasa, an'anaviy tasnif ushbu munosabatning qanday formal vositalar orqali ifodalanishini tavsiflaydi. Shu nuqtai nazardan, sintaktik razmetka jarayonida annotator ikki o'zaro bog'liq masalani hisobga olishi kerak. Birinchisi, tobe so'zshakl hokim a'zoga nisbatan qanday sintaktik vazifa bajarayotganini aniqlashdir. Ikkinchisi esa ushbu munosabatning qanday formal vositalar orqali ifodalanishini belgilashdan iborat.

Ikkinchi masalani hal etishda an'anaviy tobe aloqa tasnifi muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Tobe a'zoning kelishik

shakli, hokim a'zoning morfologik xususiyatlari, so'z tartibi va boshqa formal belgilar sintaktik munosabatni aniqlashda dalil sifatida hisobga olinadi. Tobe va hokim a'zolarining shaklii jihatdan o'zaro muvofiqlashuvi moslashuv munosabatini aniqlashga asos bo'lsa, tobe a'zoning muayyan kelishik shaklda kelishi boshqaruv munosabatining muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Maxsus morfologik ko'rsatkich mavjud bo'lmagan hollarda esa so'z tartibi, leksik-grammatik xususiyatlar va sintaktik kontekst kabi boshqa belgilar ham hisobga olinadi.

Bunday yondashuv o'zbek tili materialida ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. *Talaba xat yozdi* va *Talaba xatni yozdi* gaplarida *xat* va *xatni* so'zshakllari bir xil sintaktik vazifani bajarib, fe'lga obyekt munosabatida bog'langan. Shu sababli UD sxemasida har ikkala holat ham *obj* munosabati orqali belgilanadi. Biroq ularning formal ifodalanishi bir-biridan farq qiladi. Birinchi holatda obyekt munosabati maxsus kelishik ko'rsatkichsiz ifodalangan bo'lsa, ikkinchi holatda tushum kelishigi ko'rsatkichi mavjud. Demak, universal inventar ikkala holatning umumiy sintaktik vazifasini qayd etadi, an'anaviy tasnif esa ularning formal farqini ochib beradi. Mazkur farq sintaktik razmetka qoidalarini ishlab chiqishda muhim metodologik omil sifatida hisobga olinishi lozim.

An'anaviy tasnifning sintaktik razmetka uchun metodologik imkoniyatlarini uchta munozarali holat misolida ko'rib chiqish mumkin.

Izofa qurilmalari. *Talabaning kitobi* tipidagi birikmalar an'anaviy tasnifda moslashuv yo'li bilan bog'langan bo'lib, unda shaklii belgilanish har ikki a'zoda namoyon bo'ladi. Tobe a'zo qaratqich kelishigi shaklda, hokim a'zo esa egalik shaklda keladi. Universal Dependencies sxemasida bunday birikmalar, odatda, *nmod* munosabati orqali belgilanadi [10]. Bunda an'anaviy tasnif bilan UD tavsifi o'rtasida muayyan farq yuzaga keladi. UD munosabatni asosan tobe a'zoning hokim a'zoga nisbatan sintaktik vazifasi asosida belgilasa, an'anaviy tasnif ushbu munosabatning ikki tomonlama shaklii ifodasini ham hisobga oladi.

Bu farq hokim a'zo tarkibidagi egalik shaklining vazifasida yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, *kitobi* shaklda qaratqich komponenti ochiq ifodalanmagan bo'lsa ham, egalik shakli ushbu munosabatning mavjudligini va uning hokim komponent bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Shu sababli izofa qurilmalarini razmetka qilishda hokim a'zodagi egalik affiksi ham morfologik axborot sifatida majburiy tarzda qayd etilishi lozim. Bu ma'lumot moslashuv munosabatini aniqlashda muhim dalil bo'lib xizmat qiladi.

Ravishdoshli qurilmalar. Yuqorida qayd etilganidek, *shoshilib gapirdi* tipidagi birikuvlar ayrim manbalarda bitishuv asosida izohlansa, mazkur qo'llanmada boshqaruvli birikma sifatida baholanadi. Bunda *-ib* ko'rsatkichi bog'lanish vositasi sifatida talqin qilinadi. Sintaktik razmetka nuqtai nazaridan bunday yondashuv ravishdosh shaklidagi so'zning hokim fe'l bilan munosabatini aniqlashda morfologik shaklga alohida e'tibor qaratishni talab qiladi.

Mazkur masala ravishdosh va ko'makchi fe'l ishtirokidagi qurilmalarda yanada murakkablashadi. Turkiy tillar tribanklariga bag'ishlangan tadqiqotlarda bunday qurilmalarni sintaktik jihatdan razmetkalash muammoli holatlardan biri sifatida qayd etilgan. An'anaviy tasnif ushbu holatlar uchun tayyor UD munosabatini belgilab bermaydi, biroq u sintaktik bog'lanishning formal xususiyatlarini aniqlash uchun muhim mezon taqdim etadi. Agar ravishdosh shakli bog'lanish vositasi sifatida talqin qilinsa, ravishdosh shaklidagi so'z bilan hokim fe'l o'rtasidagi munosabatni alohida sintaktik bog'lanish sifatida qarashga asos paydo bo'ladi. Bunda ikki komponentni teng maqomdagi birliklar sifatida emas, balki hokim va tobe a'zolar sifatida tahlil qilish imkoniyati yuzaga keladi.

Kelishik ko'rsatkichsiz obyekt. *Talaba xat yozdi* gapida *xat* so'zshakli maxsus kelishik ko'rsatkichsiz obyekt vazifasida kelgan. Bunday holatda obyekt munosabati morfologik ko'rsatkich orqali bevosita ifodalanmaydi. Uni aniqlashda so'z tartibi, hokim fe'lning o'timlilik xususiyati va gapning umumiy sintaktik tuzilishi kabi belgilar hisobga olinadi. Shuning uchun mazkur holatni an'anaviy tasnif doirasida faqat bitta formal ko'rsatkichga asoslanib tavsiflash mumkin emas. Bu yerda sintaktik munosabatni aniqlash uchun bir nechta belgining majmuasi talab etiladi.

UD sxemasida *xat* so'zshakli *obj* munosabati bilan belgilanadi. Bunda obyektning morfologik jihatdan belgilanmaganligi uning sintaktik vazifasini o'zgartirmaydi. *Talaba xatni yozdi* gapida ham *xatni* so'zshakli *obj* munosabatida keladi, biroq bu holatda obyektning tushum kelishigi shakli mavjud. Demak, ikki gapda universal munosabat bir xil bo'lsa ham, uning formal ifodalanishi turlicha. An'anaviy tasnif aynan shu farqni aniqlash va razmetka jarayonida tegishli morfologik hamda sintaktik belgilarni hisobga olish imkonini beradi.

Ko'rib chiqilgan uch holat an'anaviy tobe aloqa tasnifining sintaktik razmetkadagi o'mini aniqroq belgilash imkonini beradi. Mazkur tasnif UD

inventaridagi munosabatlar uchun tayyor yorliqlarni bermaydi. Uning asosiy ahamiyati sintaktik munosabatni aniqlashda qanday formal va grammatik belgilarni hisobga olish zarurligini ko'rsatishdan iborat. Universal inventar sintaktik munosabatning turini belgilasa, an'anaviy tasnif ushbu munosabatning formal shakllanish xususiyatlarini ochib beradi. Shu jihatdan ikki yondashuv bir-birini almashtirmaydi, balki sintaktik razmetkaning turli bosqichlarida bir-birini to'ldiradi.

Muhokama

O'zbek tilidagi bitishuv, boshqaruv va moslashuv tasnifining sintaktik razmetkadagi o'rmini aniqlash shuni ko'rsatadiki, an'anaviy grammatik tasnif bilan Universal Dependencies tizimi bir xil vazifani bajarmaydi. An'anaviy tasnif sintaktik aloqaning qanday shakliyi vosita orqali yuzaga kelganini, UD esa tobe birlikning hokim birlikka nisbatan qanday sintaktik munosabatda ekanini belgilaydi. Shu sababli ularni to'g'ridan-to'g'ri bir-biriga tenglashtirish metodologik jihatdan to'g'ri emas.

Tahlil natijalariga ko'ra, bitishuv, boshqaruv va moslashuv tasnifining asosiy afzalligi uning formal diagnostik mezonlarga tayanishidir. Xususan, boshqaruvni aniqlashda kelishik shaklining mavjudligi, moslashuvni belgilashda tobe va hokim komponentlardagi grammatik ko'rsatkichlarning o'zaro muvofiqdigi, bitishuvni aniqlashda esa maxsus morfologik ko'rsatkichning mavjud emasligi va so'z tartibi kabi belgilar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday mezonlar annotator uchun sintaktik munosabatni aniqlashda dastlabki qaror nuqtalarini shakllantiradi.

Biroq faqat an'anaviy tasnifga tayanish barcha sintaktik holatlarni izchil razmetkalash imkonini bermaydi. Masalan, kelishik ko'rsatkichsiz obyekt holatida morfologik belgi mavjud emas, ammo *Talaba xat yozdi* kabi gaplarda *xat* fe'l bilan obyekt munosabatida ekanligi sintaktik va semantik omillar asosida aniqlanadi. UD tizimida bunday birlikning obj sifatida belgilanishi mazkur muammoni funksional nuqtai nazardan hal qiladi. Demak, morfologik jihatdan belgilanmaganlik sintaktik munosabatning mavjud emasligini anglatmaydi.

Izofa qurilmalarida ham ikki yondashuvning o'zaro to'ldiruvchanligi yaqqol ko'rinadi. *Talabaning kitobi* birikmasida an'anaviy grammatik tahlil qaratqich va egalik shakllarining o'zaro munosabatini asosiy belgi sifatida oladi. UD esa ushbu qurilmani nmod munosabati orqali ifodalaydi. Shunday qilib, an'anaviy tasnif annotatorga munosabatning grammatik shakllanish mexanizmini, UD esa uning universal sintaktik yorlig'ini belgilash imkonini beradi.

Ravishdoshli qurilmalar esa milliy grammatik tasnif bilan universal annotatsiya o'rtasidagi metodologik tafovutni yanada aniqroq namoyon etadi. *Shoshilib gapirdi* kabi birikmalarda ravishdosh shakllining sintaktik maqomi turlicha talqin qilinishi mumkin. Bunday holatlarda annotatsiya tizimi uchun nafaqat *-ib* shakllining mavjudligi, balki uning gapdagi funksiyasi, hokim fe'l bilan munosabati va butun konstruksiyaning sintaktik tuzilishi ham hisobga olinishi zarur. Demak, shakliy mezon yakka holda yetarli bo'lmay, funksional-sintaktik tahlil bilan birgalikda qo'llanishi lozim.

Shu jihatdan, o'zbek tili uchun sintaktik razmetka qoidalarini ishlab chiqishda ikki bosqichli tahlil modeli samarali ko'rinadi: dastlab an'anaviy

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Абдурахмонов, Ф. Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили синтаксиси / Ф. Х. Абдурахмонов. – Тошкент : Ўқитувчи, 1996. – 256 б.
2. Ғуломов, А., Асқарова, М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Тошкент : Ўқитувчи, 1987. – 256 б.
3. Ҳожиёв, А. Ўзбек тили грамматикаси. – Тошкент : Ўқитувчи, 2003. – 240 б.
4. Маҳмудов, Н. Ўзбек тилининг синтактик қурилиши. – Тошкент : Фан, 2007. – 280 б.
5. Маҳмудов, Н., Нурмонов, А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент : Фан, 1995. – 232 б.
6. Нурмонов, А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент : Фан, 2001. – 256 б.
7. Раҳматуллаев, Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент : Университет, 2006. – 476 б.
8. Сайфуллаева, Р., Менглиев, Б., Боқиева, Г. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент : Фан ва технология, 2009. – 416 б.
9. Tyers F. M., Washington J., Çöltekin Ç., Makazhanov A. An Assessment of Universal Dependency Annotation Guidelines for Turkic Languages // Proceedings of the 5th International Conference on Turkic Languages Processing (TurkLang 2017). – Kazan: Tatarstan Academy of Sciences, 2017. – P. 356–377.
10. de Marneffe M.-C., Manning C. D., Nivre J., Zeman D. Universal Dependencies // Computational Linguistics. – 2021. – Vol. 47, No. 2. – P. 255–308.

grammatik mezonlar asosida sintaktik aloqaning shakliyi xususiyatlari aniqlanadi, keyin esa ushbu munosabat UD inventaridagi tegishli universal relatsiya bilan ifodalanadi. Bunday yondashuv milliy grammatik tavsifni universal standart bilan mexanik ravishda birlashtirishdan ko'ra, ularning funksional imkoniyatlarini chegaralab va o'zaro to'ldiruvchi tarzda qo'llashga imkon beradi.

Natijada, bitishuv, boshqaruv va moslashuv tasnifi sintaktik razmetkaning bevosita universal yorliqlari sifatida emas, balki annotatsiya qarorlarini asoslovchi lingvistik-metodologik vosita sifatida qaralishi maqsadga muvofiq. Bu yondashuv, ayniqsa, o'zbek tilining morfologik jihatdan boy, shakliyi jihatdan belgilanmagan yoki bir necha xil grammatik talqinga imkon beruvchi sintaktik konstruksiyalarini izchil razmetkalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Sintaktik razmetka sxemalari muayyan grammatik an'anaga tayanadi. Turkiy tillar tribanklarining qiyosiy tahlili ham razmetkadagi tafovutlar ko'p hollarda tillarning grammatik tuzilishidagi farqlardan ko'ra, turli grammatik an'analarning ta'siri bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, o'zbek tili sintaktik razmetkasini ishlab chiqishda milliy grammatik an'anani tanqidiy tahlilsiz qabul qilish emas, uning nazariy va metodologik imkoniyatlarini alohida baholash muhimdir.

Tahlil natijalari an'anaviy tobe aloqa tasnifi va Universal Dependencies munosabatlar inventari sintaktik tuzilmaning turli jihatlarini aks ettirishini ko'rsatdi. Universal inventar tobe a'zoning hokim a'zoga nisbatan bajaradigan sintaktik vazifasini belgilasa, an'anaviy tasnif ushbu munosabatning qanday formal vositalar orqali ifodalanganini tavsiflaydi. Shu sababli mazkur ikki tasnifni bir-birining muqobili sifatida qarash mumkin emas. Biroq an'anaviy tasnifning formal belgilarni hisobga olishi uni razmetka qoidalarini ishlab chiqishda metodologik asos sifatida qo'llash imkonini beradi. Xususan, morfologik ko'rsatkichlarning mavjudligi, ularning tobe va hokim a'zolarida taqsimlanishi, shuningdek, ko'rsatkich mavjud bo'lmagan hollarda so'z tartibi, leksik-grammatik xususiyatlar va sintaktik kontekst kabi belgilar munosabatni aniqlashda hisobga olinishi mumkin.

Izofa qurilmalari, ravishdoshli qurilmalar va kelishik ko'rsatkichsiz obyekt misolida mazkur yondashuvning amaliy imkoniyatlari ko'rsatildi. Tahlil an'anaviy tasnif sintaktik razmetka uchun tayyor universal yorliqlarni bermasligini, biroq muayyan sintaktik munosabatni aniqlashda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan formal va grammatik belgilarni belgilashga yordam berishini ko'rsatdi. Demak, milliy grammatik an'anadan foydalanish universal munosabatlar inventarini almashtirishni emas, balki razmetka qarorlarini asoslashda qo'shimcha metodologik manba sifatida undan foydalanishni nazarda tutadi.

Demak, milliy grammatik an'anadan foydalanish universal munosabatlar inventarini almashtirishni emas, balki razmetka qarorlarini asoslashda qo'shimcha metodologik manba sifatida undan foydalanishni nazarda tutadi.

11. Nivre J., de Marneffe M.-C., Ginter F. et al. Universal Dependencies v1: A Multilingual Treebank Collection // Proceedings of the Tenth International Conference on Language Resources and Evaluation (LREC 2016). – Portorož, 2016. – P. 1659–1666.

12. Akhundjanova A., Talamo L. Universal Dependencies Treebank for Uzbek // Proceedings of the Third Workshop on Resources and Representations for Under-Resourced Languages and Domains (RESOURCEFUL-2025). – Tallinn: University of Tartu Library, 2025. – P. 1–6.

13. Matlatipov S., Aripov M., Bobokandov M., Matlatipov G. UzUDT: Uzbek Universal Dependencies Treebank // Proceedings of the LREC 2026. – 2026.

14. Matlatipov S., Aripov M., Bobokandov M., Matlatipov G. Annotated Universal Dependencies Dataset for Literary and Educational Uzbek Texts // Data in Brief. – 2026. – Vol. 66. – Article 112857. DOI: 10.1016/j.dib.2026.112857.

15. Universal Dependencies. Uzbek Treebanks: UD_Uzbek-UT, UD_Uzbek-UzUDT, UD_Uzbek-TueCL. – Universal Dependencies Project.

16. Xamdamova D. O'zbek va ingliz tillarida sodda gaplarning sintaktik annotatsiyasi: metodologik tamoyillar va amaliy qiyinchiliklar // Acta NUUZ. – 2026. – Vol. 1, No. 1.4. DOI: 10.69617/nuuz.v1i1.4.11502.